

ENG QADIMGI DAVRLARDAN XX ASR BOSHLARIGACHA O‘ZBEKISTON HUDUDIDA HARBIY ISHNING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Azizov Ikromjon Shadibayevich

Ilmiy rahbar, Tarix fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori
Perfect-university Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
Orcid id: 0009-0005-9179-070X, Tel.: +99833 747-96-11 ,
e-mail: azizov.ikrom@perfectuniversity.uz

Haydarov Mirzabek Husan o'g'li

Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20743906>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston hududida harbiy ishning eng qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Harbiy ishning shakllanishi dastlabki qurol-yarog'lar, mudofaa ehtiyoji, ovchilik qurollarining jangovar vositaga aylanishi, otliq qo'shinlar, mudofaa inshootlari, qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruv tizimi bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqolada paleolit, mezolit, neolit, bronza davri, qadimgi Baqtriya-Marg'iyona madaniyati, Avesto davri tasavvurlari, massagetlar, saklar, so'g'diylar, Turk xoqonligi, Xorazmshohlar, Amir Temur davri, o'zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi harbiy jarayonlar izchil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: harbiy ish, harbiy san'at, qurol-yarog', mudofaa tizimi, qo'shin tuzilishi, jang taktikasi, otliq qo'shin, O'zbekiston tarixi, Amir Temur, harbiy boshqaruv.

FORMATION OF MILITARY AFFAIRS IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN AND STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT

Abstract. This article analyzes the historical stages of the development of military affairs in the territory of Uzbekistan from ancient times to the beginning of the twentieth century. The formation of military affairs is examined in connection with early weapons, defense needs, the transformation of hunting tools into combat weapons, cavalry forces, defensive fortifications, army organization, and military administration. The article consistently discusses military processes in the Paleolithic, Mesolithic, Neolithic and Bronze Ages, the Bactria-Margiana civilization, Avestan traditions, the Massagetae, Saka and Sogdian military practices, the Turkic Khaganate, the Khwarazmshahs, the era of Amir Temur, the Uzbek khanates, and the period of Russian imperial colonial rule.

Keywords: military affairs, military art, weapons, defense system, army organization, combat tactics, cavalry, history of Uzbekistan, Amir Temur, military administration.

ФОРМИРОВАНИЕ ВОЕННОГО ДЕЛА НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА И ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. В статье анализируются исторические этапы развития военного дела на территории Узбекистана с древнейших времён до начала XX века. Формирование военного дела рассматривается в связи с первыми видами оружия, потребностями обороны, превращением охотничьих орудий в боевые средства, конными войсками, оборонительными сооружениями,

организацией войска и системой военного управления. Последовательно освещаются военные процессы эпохи палеолита, мезолита, неолита, бронзового века, Бактрийско-Маргианской цивилизации, авестийских представлений, массагетов, саков, согдийцев, Тюркского каганата, Хорезмшахов, эпохи Амира Темура, узбекских ханств и периода колониального господства Российской империи.

Ключевые слова: военное дело, военное искусство, вооружение, оборонительная система, организация войска, боевая тактика, конница, история Узбекистана, Амир Темура, военное управление.

Kirish. O'zbekiston hududida harbiy ish tarixi juda qadimiy ildizlarga ega. Bu jarayon insoniyatning dastlabki mehnat qurollari, ovchilik tajribasi, jamoaviy mudofaa ehtiyoji va keyinchalik ilk davlatlarning shakllanishi bilan bog'liq holda rivojlandi. Harbiy ish faqat jang qilish vositalari yig'indisi emas, balki jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, texnik, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq tarixiy hodisadir. Harbiy san'at tarixida O'zbekiston hududi alohida o'rin tutadi. Bu yerda qadimgi voqea madaniyatlari, ko'chmanchi chorvadorlar, shaharsozlik markazlari, savdo yo'llari, mudofaa qal'alari va yirik davlatlar shakllangan. Har bir davr harbiy ishga o'z ta'sirini ko'rsatgan: qadimgi davrda o'q-yoy va nayza, ilk o'rta asrlarda otliq qo'shin, o'rta asrlarda qal'a mudofaasi va sarkardalik san'ati, keyingi davrlarda esa o'qotar qurol va harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi muhim ahamiyat kasb etgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, harbiy ish tarixi yurt himoyasi, davlat xavfsizligi, vatanparvarlik tarbiyasi va milliy tarixiy xotirani shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Rasulova va hammualliflar tayyorlagan qo'llanmada eng qadimgi davrdan 1917-yilgacha harbiy tizim, qurol-yarog'lar, sulolalar davridagi harbiy boshqaruv, jang taktikasi va qo'shin tuzilishidagi islohotlar yoritilgani qayd etiladi

Asosiy qism. O'zbekiston hududida harbiy ishning ilk shakllari paleolit va mezolit davrlariga borib taqaladi. Dastlabki qurol-yarog'lar, asosan, ovchilik va o'zini himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Paleolit davrida uchi o'tda toblangan yog'och nayzalar, chaqmoqtosh va suyakdan yasalgan nayzalar, uloqtirishga mos kalta nayzalar ishlatilgan. Mezolit davrida esa uchi chaqmoqtoshdan yasalgan o'q-yoylar, suyakdan va chaqmoqtosh sopli xanjar hamda pichoqlar paydo bo'lgan [1].

Neolit davrida harbiy qurollarning yangi turlari shakllana boshladi. Toshidan va kiyik shoxidan yasalgan boltalar, yangi qurol-aslahalar, xomashyo konlarini izlab topish va ishlab chiqarish tajribasi bu davrning muhim jihatlaridan biri edi. Ushbu bosqichda qurol yasash mahorati mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lsa-da, u asta-sekin mudofaa va hujum vositasiga aylana bordi [1].

Bronza davri harbiy ish taraqqiyotida muhim burilish yasadi. Jamiyat xo'jalik va turmush tarziga ko'ra ko'chmanchi chorvadorlar va o'troq dehqonlarga ajraldi. Toshidan metallga o'tish qurol-yarog'larning takomillashuviga olib keldi. Bronzadan mehnat qurollari bilan birga harbiy qurol-yarog'lar ham yasaldi. Metall eritish va temirchilik hunarining rivojlanishi hujum va mudofaa qurollarining ixtisoslashuvini kuchaytirdi [1].

Baqtriya-Marg'iyo madaniyati davrida mudofaa tizimlari ancha rivojlangan. Manbalarda ushbu manzillarning me'moriy xususiyatlari O'rta Sharq va Hindiston mamlakatlaridagi mudofaa inshootlariga o'xshash bo'lgani qayd etiladi. Dushman hujumi paytida aholi orasidan lashkar

to'plangan, ular dudama pichoqlar, xanjarlar, nayzalar, uloqtirma nayzalar va o'q-yoylar bilan qurollangan. Bu davrda nayzali oyboltaga o'xshash jang qurollari ham paydo bo'lgan [1].

“Avesto”da aks etgan harbiy tasavvurlar ham qadimgi O'zbekiston hududida jangovar madaniyatning shakllanganini ko'rsatadi. Mitra tavsifida bronzadan yasalgan nayza, o'qlar, kiyik payidan ishlangan yoy, toshotar palaxmon, ikki tomonlama kesuvchi xanjar, oybolta va uloqtiriluvchi bolta tilga olinadi. Qo'shin saf-saf bo'lib tizilgan, markaz va yon qanotlarga bo'lingan, jang oldidan bahodirlar yakkama-yakka olishgan [1]. Bu ma'lumotlar qadimgi davrda harbiy tartib, jangovar saf va qurol turlari bo'yicha muayyan tasavvur shakllanganini ko'rsatadi.

Massagetlar harbiy san'ati qadimgi Turon hududidagi eng yorqin sahifalardan biridir. Yunon tarixchisi Gerodot massagetlarni otliq va piyoda jangchilar, kamonchi va nayzabardorlar sifatida tasvirlaydi. Ular mis qurollardan foydalangan, otlarining ko'kragini misdan qilingan kejimlar bilan yopgan, kamar, belbog' va ot jihozlarini oltin bilan bezagan [1]. Bu tasvir massagetlarda otliq qo'shin, piyoda jangchilar va qurol-yarog' madaniyati birgalikda rivojlanganini ko'rsatadi.

To'maris boshchiligidagi massagetlarning Kir II qo'shiniga qarshi kurashi taktik mahorat namunasi hisoblanadi. Manbalarda massagetlar “qochib jang qilish” usulini qo'llagani, To'maris o'zini go'yo ishonchini yo'qotgandek tutib, Kirni o'z ortidan tor hududga ergashtirgani, u yerda pistirma tayyorlangani va jang dastlab o'q otish, keyin qo'l jangi bilan davom etgani ko'rsatiladi [1]. Bu jang taktikasi dushmanni chalg'itish, qulay joyga tortish va kutilmagan zarba berish usuliga asoslangan edi.

Saklar harbiy mahoratida o'q-yoy alohida o'rin tutgan. “Skif yoyi” bronza asrining oxirida paydo bo'lib, 60–80 sm uzunlikda bo'lgan, o'qlari esa 80 sm dan oshmagan. Bunday yoy O'rta Osiyo, Eron va Old Osiyoda tarqalgan. Saklar “otgan o'qi xato ketmaydigan eng mohir o'qchilar” sifatida ta'riflangan [1]. Bu holat kamonchilikning Turon xalqlari harbiy san'atidagi o'rnini aniq ko'rsatadi.

So'g'diylar harbiy taktikasida pistirma, tor yo'laklardan foydalanish va dushman safini buzish usullari ko'zga tashlanadi. Spitamen boshchiligidagi kuchlar makedoniyalik otliq askarlarni qirlar va qalin o'rmon orasidagi tor yo'lakka olib kirib, pistirmadan turib avval kamon o'qi, keyin qilich bilan zarba bergan. Ayrim ma'lumotlarda “qurbon otlar” yordamida dushman nayzalarini safdan chiqarish, chavandozlarning qalqonlar devori ustidan dushman qatorlari ichiga o'tishi kabi taktik usullar ham qayd etiladi [1]. Bu usullar ochiq maydondagi kuchlar nisbatidan ko'ra, muhit va manevrdan foydalanish ustuvor bo'lganini bildiradi.

Qadimgi mudofaa inshootlari harbiy ish taraqqiyotining muhim belgisi edi. Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida qal'a to'siq devorlarining barpo etilishi, devorlarda ikki qator o'q otish yo'laklari va galereyalar mavjudligi qayd etiladi [1]. Bu inshootlar shahar mudofaasi, uzoq muddatli qarshilik, aholini himoya qilish va harbiy muhandislik tajribasining rivojlanishini ko'rsatadi.

Ilk o'rta asrlarda harbiy ish yangi bosqichga ko'tarildi. Og'ir qurollangan otliqlar markazda joylashtiriladigan bo'ldi, qurol-yarog'larga yangi unsurlar kirib keldi, otliqlar uzun uchli nayzalar bilan ajralib turdi [1]. Bu davrda harbiy qo'shin tarkibida og'ir qurollangan sovutli otliqlar, yengil qurollangan jangchilar va yordamchi piyoda otryadlar mavjud bo'lgan. Aralash jang usuli dushman hujumini o'q-yoy bilan qarshi olish va vaziyatga qarab turli tarafdin hujum uyushtirish imkonini bergan [1]. Ustrushona, Farg'ona va Choch harbiy hunarmandchiligi mahsulotlari O'rta Osiyo tashqarisida ham mashhur bo'lgan. Xitoy imperiyasiga So'g'd sovuti yuborilgani, Eron, Hindiston, Xitoy va hatto g'arbda Shotlandiyagacha murakkab tuzilgan yoylar tarqalgani qayd etiladi [1]. Bu holat O'zbekiston hududidagi harbiy hunarmandchilik faqat mahalliy ehtiyojga xizmat qilmaganini, balki xalqaro almashinuv tizimiga ham kirganini ko'rsatadi.

Turk xoqonligi davrida harbiy ish keng hududlarni boshqarish ehtiyoji bilan bog'liq holda takomillashdi. Xoqonlik sharqda Koreya bo'g'ozi, g'arbda Shimoliy Qora dengiz bo'ylari, janubda Afg'oniston va Shimoliy Hindiston, shimolda Ural tog'lari, Enisey va Baykalbo'yi hududlarigacha ta'sir ko'rsatgan yirik siyosiy kuch edi [1]. Bunday keng hududni nazorat qilish uchun harbiy boshqaruv, tezkor otliq qo'shin va qat'iy intizom zarur bo'lgan. Turk xoqonligida barcha erkaklar harbiy xizmatni bajarishga majbur bo'lgani qayd etiladi. Xitoy yilnomalarida turklar jangda halok bo'lishni sharaf, kasallikdan o'lishni esa uyat deb bilganlari haqida ma'lumot berilgan [1]. Bu holat harbiylik faqat kasbiy faoliyat emas, balki ijtimoiy qadriyat va erkaklik sha'ni bilan bog'liq tushuncha bo'lganini ko'rsatadi.

Xorazmshohlar davrida harbiy ish davlat xavfsizligi va hududiy kengayishning asosiy tayanchiga aylandi. Qo'llanmada Xorazmshohlar armiyasi turk askarlaridan tuzilgani, qo'shin bo'linmalari va qismlar qabilaviy asosda tashkil qilingani, ayrim ma'lumotlarga ko'ra davlatda majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimi joriy qilingani qayd etiladi [1]. Bu harbiy tayyorgarlikning davlat darajasida muhim masala sifatida ko'rilganini anglatadi.

Amir Temur davrida O'zbekiston hududida harbiy ish taraqqiyotining eng yuqori bosqichlaridan biri yuzaga keldi. Temur qo'shin tuzilishi, jangovar tartib, razvedka, intizom, zaxira kuchlardan foydalanish, tezkor yurish, psixologik ta'sir, diplomatik-harbiy rejalashtirish va dushman kuchlarini parchalashga katta e'tibor qaratdi. Harbiy tarix qo'llanmalarida Amir Temur harbiy yurishlari va harbiy san'ati alohida mavzu sifatida berilishi uning harbiy merosining ilmiy ahamiyatini ko'rsatadi [3; 4]. Amir Temur harbiy tizimining kuchli tomoni qo'shin bo'linmalari, amirlar mas'uliyati, saf tartibi va jang oldi tayyorgarligining puxta belgilanganida ko'rinadi. Qo'shin markaz, o'ng qanot, chap qanot, ilg'or qism, orqa qism va zaxira kuchlardan iborat bo'lib, bu tuzilma jang maydonida moslashuvchan harakat qilish imkonini bergan [4; 5]. Temuriy harbiy tajriba keyingi asrlarda ham harbiy-siyosiy tafakkur uchun namuna bo'lib qoldi.

Shayboniylar davrida harbiy ish yangi siyosiy sharoitga moslashdi. O'rta asrlar oxiriga kelib qo'shin tarkibida an'anaviy otliq kuchlar bilan birga qal'a qamal qilish vositalari, tosh otuvchi qurilmalar, naftandozlar va keyinchalik zambaraklar ham qo'llanila boshladi [1]. Bu harbiy texnikaning o'zgarib borayotganini, jang usullarida esa qal'a va shaharlarni egallash masalasi muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari davrida harbiy boshqaruv an'anaviy mansab va unvonlar orqali tashkil etildi. Qo'qon xonligi misolida to'pchiboshi, to'qsabo, ponsadboshi, yuzboshi, panjohboshi, dahboshi, qorovulbegi kabi harbiy lavozimlar mavjud bo'lgani ko'rsatiladi. Askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to'pchi, zanbarchi, qo'rchi, qorovul, nog'orachi, surnaychi, tug'chi kabi atamalar qo'shin tarkibining rang-barangligini bildiradi [1]. Xonliklar davrida qo'shinlar tinchlik vaqtida ko'pincha tarqatib yuborilgan, faqat saroy va qushbegi soqchilari saqlangan. Keyingi davrlarga kelib doimiy armiya shakllana boshlagan [1]. Bu holat markazlashgan davlat armiyasi bilan an'anaviy harbiy safarbarlik tizimi o'rtasidagi o'tish bosqichini ko'rsatadi.

XIX asrda Rossiya imperiyasi bosqini va mustamlaka boshqaruvi harbiy ish tarixida keskin burilish yasadi. 1867-yilda Turkiston harbiy okrugi tashkil etildi va Rossiya imperiyasi egallagan hududlarda harbiylashtirilgan mustamlaka boshqaruvi joriy etildi. O'lka, viloyat va volost boshliqlari harbiylardan tayinlangan, ular o'z hududidagi harbiy qismlar boshlig'i ham bo'lgan. Turkiston harbiy okrugi Rossiya imperiyasining o'lkadagi asosiy tayanch kuchi sifatida faoliyat yuritgan [1]. Turkiston harbiy okrugi faqat chegarani qo'riqlash bilan cheklanmagan. Manbalarda uning qo'shinlari qo'shni mamlakatlardagi ichki vaziyatni o'rganish uchun razvedka ishlarini olib

borgani, butun o'lka ichki va tashqi jihatdan harbiy okrug nazorati ostiga olingani qayd etiladi [1]. Bu jarayon mahalliy harbiy an'analar va mustamlaka harbiy-ma'muriy tizimi o'rtasidagi keskin tafovutni ko'rsatadi.

Harbiy ish tarixining umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hududida harbiy tizim jamiyat taraqqiyoti bilan birga o'zgarib borgan. Dastlabki bosqichda qurol-yarog'lar ov va mudofaa ehtiyojidan kelib chiqqan bo'lsa, keyinchalik ular ixtisoslashgan jangovar vositalarga aylandi. Ilk davlatlar davrida mudofaa inshootlari, qo'shin yig'ish va jangovar saf tartibi shakllandi. O'rta asrlarda otliq qo'shin, sarkardalik, razvedka, qal'a mudofaasi va jangovar taktika rivojlandi. Xonliklar davrida harbiy mansablar va doimiy armiya shakllanishi jarayoni kuchaydi. Mustamlaka davrida esa harbiy boshqaruv tashqi imperiya manfaatlariga bo'ysundirildi [1; 2].

Xulosa. O'zbekiston hududida harbiy ishning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, u paleolit davridagi oddiy mudofaa qurollaridan boshlab, murakkab qo'shin tuzilishi, harbiy boshqaruv, qal'a mudofaasi, otliq qo'shin, jangovar taktika va mustamlaka davri harbiy-ma'muriy tizimigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Qadimgi davrda o'q-yoy, nayza, xanjar, bolta, jangovar arava, palaxmon va mudofaa devorlari harbiy ishning asosiy ko'rinishlari bo'lgan. Massagetlar, saklar va so'g'diylar tajribasida otliq jangchilar, kamonchilik, pistirma, chalg'itish va tor hududlardan foydalanish taktikasi rivojlandi. Ilk o'rta asrlarda og'ir qurollangan otliqlar, yengil jangchilar, yordamchi piyoda otryadlar va murakkab yo'ylar harbiy ishning asosiy jihatlariga aylandi. Turk xoqonligi davrida barcha erkaklarning harbiy xizmatga jalb qilinishi va keng hududni boshqarishga moslashgan qo'shin tizimi harbiy tashkilotchilikning yuqori darajasini ko'rsatadi.

Xorazmshohlar va Amir Temur davrida harbiy ish davlat xavfsizligi, strategik boshqaruv va sarkardalik san'ati bilan chambarchas bog'landi. Xonliklar davrida harbiy mansablar, sarbozlar, to'pchilar va doimiy armiya shakllanishi jarayoni kuzatildi. Rossiya imperiyasi davrida esa Turkiston harbiy okrugiga orqali o'lka harbiylashtirilgan mustamlaka boshqaruvi ostiga olindi. O'zbekiston hududidagi harbiy ish tarixi ajdodlarimizning vatan himoyasi, jangovar mahorati, texnik tafakkuri va davlatlilik tajribasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu meros bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik, tarixiy xotira va milliy g'urur ruhida tarbiyalash uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rasulova N.S., Abdijamilov A., Yarashev A. O'zbekistonda harbiy ishning shakllanish tarixi: eng qadimgi davrdan 1917-yilgacha. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 96 b.
2. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan: qadimgi davrdan hozirgacha / Mas'ul muharrir D.X. Ziyayeva. – Toshkent: Sharq, 2012. – 256 b.
3. Uzoqov A.M., Nurullayev L.L., Nazarov T.T. Harbiy tarix. O'quv qo'llanma. – Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2022. – 244 b.
4. Ҳасанов Ф. Турон халқлари ҳарбий санъати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – 440 б.
5. Дадабоев Ҳ. Аждодларимизнинг ҳарбий маҳорати. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 176 б.
6. Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2005.
7. Буниётов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати 1097–1231. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.

8. Дадабоев Х., Йодгоров Х. Ўзбек ҳарбий терминологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Sahhof, 2021.